

TURKIYADA ALISHER NAVOIY ASARLARINING QO‘LYOZMA NUSXALARI  
XUSUSIDA

Abduraimova Durdona Muxiddin qizi

Alisher Navoiy nomidagi  
ToshDO‘TAU 2-bosqich magistranti  
abduraimovadurdona@07gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqola orqali turk klassik adabiyotining yorqin vakili bo‘lgan Alisher Navoiy asarlarining qo‘lyozma nusxalarining saqlanishi, Turkiyada Navoiyga bo‘lgan e‘tibor xususida ma‘lumotlar beriladi. Navoiyning nodir va noyob asarlari nusxalari Turkiyaning turli kutubxonalarida saqlanib, hozirgi kunga qadar olimlar tomonidan tadqiqot obyekti sifatida o‘rganib kelinmoqda. Navoiyning asarlari butun turkiy xalqlarning adabiy me‘rosi hisoblanadi.

**Kalit so‘zlar:** Alisher Navoiy, asarlari, kutubxonalar, turk adabiyoti, g‘arb turkchasi, sharq turkchasi, nusxalar.

**Annotation:** This article provides information about the preservation of manuscript copies of the works of Alisher Navai, a bright representative of Turkish classical literature, and the attention paid to Navai in Turkey. Copies of Navai’s rare works are kept in various libraries of Turkey and are being studied by scientist research objects. Navai works are literary heritage of all Turkic peoples.

**Keywords:** Alisher Navai, works, libraries, Turkish literature, Western Turkish, Eastern Turkish, copies.

**Аннотация:** Благодаря этой статье обеспечивается сохранение рукописных копий произведений Алишера Наваиб яроло представителя турецкой классической литературы. Приведена информация о вниманииб уделяемом Наваи в Турции. Экземплярры редких произведений Наваи хранятся в различных библиотеках Турции и изучаются учеными как объекты исследования Произведения Наваи являются литературным наследием всех тюркские народы.

**Ключевые слова:** Алишер Наваи, произведения, библиотеки, турецкая литература, западно-турецкий, восточно-турецкий, копии.

---

Qadimiy tarix va buyuk bir xazinaga ega bo‘lgan turklar tabiiy o‘laroq bir qancha buyuk allomalar, shoir, yozuvchi va ko‘plab olimlarni yetishtirib chiqargan. VIII asrdan e‘toboran bir yozuv tili sifatida qo‘llanilib kelinayotgan turk tili yuzlarcha so‘z san‘ati ustalari tomondan yanada sayqallanib, rivojlanib kuchli bir kelajakka ega bo‘lgan, ma‘lum qoida va me‘yorlarga solingan til sifatida turkiy o‘lkalarning ona tiliga aylandi. Islom dinining kirib kelishi barchga sohalaridagi kabi til rivojiga ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatdi. Shu asnod, bolosog‘unlik Yusuf Xos Hojib, qoshg‘arlik Mahmud, yuknaklik Ahmad kabi buyuk insonlarning yozgan asarlari turkiy tilning jonlanishiga ulkan xissa qo‘shdi. Bu insonlarning izidan XV asrning yetuk namoyondalaridan biri: Alisher Navoiy yetishib chiqdi. Alisher Navoiyning beqiyos ijodi, yozgan asarlari o‘zi yashagan davrdanoq turkiy tilga “Navoiy tili” yoki “Navoiy tarzi” sifatlarini berilishiga zamin yaratdi. Navoiy asarlarining boshlang‘ich qismida, “ bu turdagi asarlar arabcha va forsiyda koptur, buni turklar ham o‘rgansin, bilsin” –deb, nima sababdan turkiy tilda yozganligini ochiqqlagan. A. Navoiyning sharq turkchasida yozgan asarlari g‘arb turkchasini ta‘sirantirgan, asarlari hayotlik chog‘idayoq g‘arb turkchasiga o‘grilgan. Navoiyning asarlari nafaqat O‘zbekistonda, balki Turkiyada ham uning hayotlik chog‘idan bugungi kungacha olimlar tomonidan o‘rganishlar va izlanishlar, tadqiqotlar uchun ulkan ma‘naviy me‘ros bo‘lib xizmat qilmoqda. Har bir davrda Turkiyada Alisher Navoiy ijodiga katta qiziqish bilan qaralgan.

Navoiy juda ko'p turk shoirlariga o'rnak va ustoz bo'lgan. Turkiyada katta shavq va g'urur bilan o'qilgan Navoiy asarlari Usmonli shoirlarining ijodiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatgan. XV asrda yashab ijod qilgan shoir Ahmat Poshsho, XVI asrda yashab ijod qilgan Fuzuliy kabi yetuk iste'dod egalarning ijodida Navoiyning o'rni beqiyosdir. Usmonli hukumdorlari ham Navoiy ixlosmandlaridan bo'lishgan. Jumladan, Yavuz Sulton Salim Navoiyning hayronlaridan biri edi.

Turkiya kutubxonalarida Navoiy asarlari, ular haqida ilmiy izlanishlar, maqolalar bir qancha. Navoiy asarlari uchun lug'atlar tuzilgan. Turkiyada ham Navoiy asarlari yuzasidan ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lib, Turkiyada Navoiyga e'tibor va eritofning Navoiy davridagi usmonli shoirlarning unga atab yozgan naziralari, asarlari, g'azallariga bog'langan muxammaslari dalil sifatida ko'rishimiz mumkin. Ilmiy izlanishlarga ko'ra Navoiyning Turkiyandagi turli kutubxonalarda bir qancha qo'lyozma asarlari saqlanib kelinmoqda. Navoiyshunos olim Agah Sirri Leventning maqolasiga ko'ra: Topkapi va Sulaynoniya kutubxonasida Navoiyning 2ta Kulliyoti, Istanbul universiteti kutubxonasida 4ta Devoni bor. Konya genel kutubxonasida ham 4ta devoni, turli xil kutubxonalarda "G'aroyib-us sig'ar" ning 19ta nusxasi, bir kutubxonada "Navadir-ush shabobning bir nusxasi, bir kutubxona va bir kishining qo'lida "Badoiy-us vasat"ning 2 nusxasi mavjud. Forscha devonlarining ham nusxalari turli kutubxonalarda topilgan. Farqli kutubxonalarda Navoiy "Xamasa" sidagi masnaviylardan yig'ilgan alohida kitobning 9ta nusxasi ham bor. Turkiya kutubxonalarida "Hayrat-ul abror"ning 4ta "Sabbayi-sayyor"ning 1ta nusxasi mavjud. Istanbul universiteti kutubxonasida "Majmua" shaklida Navoiyning "Chihil hadis" tarjimai, "Nasoyim-ul muhabbat", "Xamsat-ul muttahayirin", "Holati Hasan Ardasher" "Pahlavon Muhammad", "Majolis-un nafois", "Mahbub-ul qulub" asarlarining ham nusxalari mavjud. Yana boshqa kutubxonalarda "Chihil hadis"ning 6ta, "Nazm-ul javohir"ning 2ta, "Siroj-ul muslimin"ning 1ta, "Majolis-un nafois"ning 11ta, "Mahbub-ul qulubning" 4ta "Vaqfiya"ning 3ta nusxasi aniqlangan.

Navoiy asarlarining Turkiya adabiy muhitida tutgan o'rnini yuqoridagi ma'lumotlar asosida bilish qiyin emas. Yuksak iste'dod bilan qalamga olingan va har bir davr uchun nodir hisoblangan shoir asarlarini saqlash, ularni Navoiy ixlosmandlariga yetkazish har bir turk millatning muhim vazifadir.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Agah Sırrı Levend, Ali Şir Nevâî (Hayatı, Sanatı ve Kişiliği), C:1, TTK, Ankara, 1965, s.29-40.
2. Abdullah Alilî, "Ali Şir Nevâî'nin Edebi Kişiliği ve Eserleri", Üsküp, Kiril Metodi Üniversitesi.
3. Fuat Köprülü, Ali Şir Nevai-Edebiyat Araştırmaları, İstanbul, Ötüken Yayınları, 1989, s.429-438.
4. Yasin Şen, "Babürname'ye Göre Ali Şir Nevai", Türk Dünyası Dergisi, 2014, s.8.
5. Kaan Dilek, "Şerefeddin Ali Yezdi", T.D.V. İslâm Ansiklopedisi, C:38, s.550-552.
6. Serdar Bulut, "Asya Coğrafyası'nın Büyük Edibi Ali Şir Nevai", Asya Studies, C:1, 2017, s.23-41.
7. W. Barthold, "Herât ve Herirud Boyu", Tarih Dergisi, İstanbul, 2011, s.180.
8. Vahit Türk ve Şaban Doğan, Ali Şir Nevai-Hayretü'l Ebrar(1.Basım), Türk Kültürünü Araştırma.
9. Enstitüsü, Ankara, 2018.
10. Ömer Yılar, Halk Hikayesi Olarak Ferhat İle Şirin(1.Baskı), Pegem Akademi, Ankara, 2014.
11. Hatice Tören, Ali Şir Nevai Sedd-i İskenderi, T.D.K Yayınları, Ankara, 2001
12. M. Fuat Köprülü, Ali Şir Nevâyî, Mâârif Matbası, İstanbul, TTK, 1941